

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SO'G'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH	162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB Olish.....	169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam	
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH.....	174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ	179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза	
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI	183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH	189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI	200
Safaraliyev Suyun Sheraliyevich	
RESEARCH AND DESIGN OF ANAEROBIC REACTORS FOR EFFECTIVE FERMENTATION OF AGRICULTURAL RESIDUE	204
Dilbar Ramazonova	
"TARMOQLARDAN FOYDALANISH" BOBINI O'QITISHDA MUALLIFLIK TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	209
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchov	
RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	216
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH JARAYONLARINING AMALDAGI HOLATI	223
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIYAVIY TAHLIL AMALIYOTINING MUAMMOLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	232
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi	
SURXONDARYODA YASHIL TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	240
Mamatov Sardor, Rashidova Nargiza	
XORIJIY MAMLAKATLARDA UY-JOY NARXLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH TAJRIBASI... ..	246
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TOMORQA XO'JALIKLARI FAOLIYATIDAN KELADIGAN DAROMADLARNI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI	252
U.U. Nurullayev	
ECONOMIC EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN WAREHOUSE OPERATIONS.....	257
Abdulazizova Shakhrixoda Azizbek kizi	
IXTISOSLASHUV VA KONSENTRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA SUT MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING SAMARADORLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	262
Sherbekova Ariuxan Rashidovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITAL TARKIBINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARIGA TA'SIRI TAHLILI.....	266
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
ОПТИМИЗАЦИЯ РЕЖИМОВ ВЫРАБОТКИ КИСЛОРОДА И СЖАТОГО ВОЗДУХА ДЛЯ СНИЖЕНИЯ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ЧЕРНОВОЙ МЕДИ.....	271
T.C. Камалов, X.T. Ташева, Д.А. Ишанова, У.И. Абляев	
SOLIQ SIYOSATINING INVESTITSION FAOLLIKKA TA'SIRI.....	279
Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Zarif Oripovich Axrorov	
SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI OMMALASHTIRISH VA JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	284
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA RISKLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Tuopova Nigora Xolmurod qizi	
VIRTUAL REALLIK SAHNALARIDA KO'P ISHTIROKCHILI HOLISTIK HARAKATNI REAL VAQT REJIMIDA KUZATISH VA KO'P AGENTLI SKELETNI RETARGETING QILISH.....	297
Abdusamatov Abdurasul Abduqahhor o'g'li	
O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORIDA FINTEX VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA INVESTITSIYA FAOLLIGI.....	304
Karimova Nurjahan Olim qizi	

O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORIDA FINTEX VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA INVESTITSIYA FAOLLIGI

Karimova Nurjahan Olim qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchi

Email: nur2025karimova@gmail.com

ORCID: 0009-0004-5791-6519

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston kapital bozorida fintex vositalaridan foydalanishning individual investorlar faolligi va investitsiya xulq-atvoriga ta'siri tadqiq etilgan. Raqamli investitsiya platformalari, mobil brokerlik xizmatlari, algoritmik tavsiyalar va elektron savdo tizimlarining bozorga kirish xarajatlari, axborot olish tezligi hamda bitimlar soniga ta'siri nazariy va empirik jihatdan baholangan. Tadqiqotda xulq-atvor moliyasi, rejalashtirilgan xatti-harakatlar nazariyasi va texnologiyalarni qabul qilish modelining konseptual qoidalaridan foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy ma'lumotlari asosida internetdan foydalanish darajasi, fond bozori savdo hajmi, bitimlar soni, bozor kapitallashuvi va erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar dinamikasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fintex, kapital bozori, investitsiya faolligi, individual investor, investitsiya xulq-atvori, raqamli moliya, fond bozori, moliyaviy savodxonlik, xulq-atvor moliyasi, algoritmik tavsiyalar.

Аннотация: В статье исследовано влияние использования финтех-инструментов на инвестиционную активность и поведение индивидуальных инвесторов на рынке капитала Узбекистана. Теоретически и эмпирически оценено воздействие цифровых инвестиционных платформ, мобильных брокерских сервисов, алгоритмических рекомендаций и электронных торговых систем на издержки входа на рынок, скорость получения информации и количество совершаемых сделок. Методологическую основу исследования составили положения поведенческих финансов, теории запланированного поведения и модели принятия технологий. На основе официальных данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистике и Республиканской фондовой биржи «Ташкент» проанализирована динамика использования интернета, объёма торгов, количества сделок, рыночной капитализации и ценных бумаг, находящихся в свободном обращении.

Ключевые слова: финтех, рынок капитала, инвестиционная активность, индивидуальный инвестор, инвестиционное поведение, цифровые финансы, фондовый рынок, финансовая грамотность, поведенческие финансы, алгоритмические рекомендации.

Abstract: This article examines the impact of fintech tools on investment activity and the behavior of individual investors in Uzbekistan's capital market. It provides a theoretical and empirical assessment of how digital investment platforms, mobile brokerage services, algorithmic recommendations, and electronic trading systems affect market-entry costs, access to information, and the number of securities transactions. The methodological framework integrates behavioral finance, the theory of planned behavior, and the technology acceptance model. Using official data from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan and the Tashkent Republican Stock Exchange, the study analyzes trends in internet usage, securities trading volume, the number of transactions, market capitalization, and freely traded securities.

Keywords: fintech, capital market, investment activity, individual investor, investment behavior, digital finance, stock market, financial literacy, behavioral finance, algorithmic recommendations.

KIRISH

Jahon moliya tizimidagi raqamli transformatsiya investitsiya faoliyatini sezilarli darajada o'zgartirib, individual investorlarning qaror qabul qilish usullari, axborotdan foydalanishi va bozor faolligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Mobil investitsiya ilovalari, raqamli brokerlik platformalari, sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar va ijtimoiy investitsiya tarmoqlari kapital bozoriga kirishdagi moliyaviy va axborot to'siqlarini kamaytirib, keng aholi qatlamlarini investitsiya jarayonlariga jalb etmoqda. Fintex texnologiyalari investitsiya imkoniyatlarini kengaytirib, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishiga qaramay, yangi tavakkalchiliklarni ham yuzaga keltirmoqda. Operatsiyalarni tez va oson amalga oshirish imkoniyati ortiqcha savdo faolligi, qisqa muddatli qarorlar va risklarni yetarli baholamaslikka olib kelishi mumkin. Shuningdek, mobil bildirishnomalar, reytinglar va ommabop aktivlar haqidagi ma'lumotlar investor qarorlariga sezilarli ta'sir qiladi.



Bu holat fintex texnologiyalari investorlarning nafaqat imkoniyatlarini, balki iqtisodiy xulq-atvorini ham o'zgartirayotganini ko'rsatadi. Investitsiya qarorlari ko'pincha moliyaviy bilim, riskni qabul qilish darajasi, ijtimoiy ta'sir va kognitiv og'ishlar ta'sirida shakllanadi. Ortiqcha ishonch, ommaviy xatti-harakatga ergashish va yo'qotishlardan qochish kabi omillar raqamli platformalarda yanada kuchli namoyon bo'lishi mumkin. Sun'iy intellekt va robo-maslahatchilar investitsiya qarorlarini soddalashtiradi va investorlarga mos portfel shakllantirishga yordam beradi. Biroq algoritmlarga haddan tashqari ishonch bildirish va tavsiyalarni mustaqil baholamaslik xavfi ham mavjud. Shu sababli fintexning investitsiya xulq-atvoriga ta'sirini o'rganishda texnologiyaning o'zi emas, balki undan foydalanish usuli muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish, kapital bozorini rivojlantirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar fintex ekotizimining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Internet foydalanuvchilari sonining ortishi, mobil aloqa va raqamli to'lovlarning ommalashuvi investitsiya xizmatlarini elektron shaklda taqdim etish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Shunga qaramay, mamlakat kapital bozorida individual investorlar faolligi hali ham yetarli darajada yuqori emas. Aholining ko'p qismi jamg'armalarini bank omonatlari, ko'chmas mulk yoki boshqa an'anaviy aktivlarda saqlaydi. Moliyaviy bilimlarning cheklanganligi, investitsiya vositachilariga ishonchning pastligi va risklarni baholash ko'nikmalarining yetishmasligi fond bozorining rivojlanishini sekinlashtirmoqda. Bunday sharoitda fintex platformalari muhim vosita bo'lishi mumkin, biroq moliyaviy savodxonlik yetarli bo'lmasa, noto'g'ri qarorlar xavfi ortadi.

Shu sababli kapital bozorini rivojlantirish faqat texnologik infratuzilmani takomillashtirish bilan cheklanmasligi kerak. Investorlarni sifatli axborot bilan ta'minlash, algoritmlarning shaffoqligini oshirish, huquqiy himoya va moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish ham muhimdir. Xorijiy tadqiqotlarda mobil investitsiya ilovalari, robo-maslahatchilar, kryptoaktivlar va ijtimoiy tarmoqlarning investor qarorlariga ta'siri keng o'rganilgan. Biroq O'zbekiston kabi rivojlanayotgan bozorlarda fintex va investor xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlik yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Shuningdek, investitsiya qilish niyati bilan amaliy investitsiya faoliyati o'rtasida farq mavjud. Moliyaviy bilimlarning yetishmasligi, riskdan qo'rqish yoki bozor institutlariga ishonchsizlik investitsiya niyatining real harakatga aylanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Fintex bu tafovutni kamaytirishi mumkin, ammo uning ta'siri investorlarning yoshi, daromadi, tajribasi va raqamli ko'nikmalariga bog'liq. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda fintex texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida individual investorlar xulq-atvorining xususiyatlarini aniqlash, texnologik, iqtisodiy, psixologik va institutsional omillarning investitsiya qarorlariga ta'sirini baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston moliya va kapital bozorida raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanayotgan yoki foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan individual investorlar tanlangan. Tadqiqot predmeti esa fintex vositalari, moliyaviy va raqamli savodxonlik, riskni idrok etish, platformaga ishonch va kognitiv omillarning investitsiya qarorlariga ta'siridir.

Tadqiqotda fintex platformalarining investitsiya faolligiga ta'siri, moliyaviy savodxonlikning roli, algoritmik tavsiyalarga ishonch hamda ortiqcha ishonch, ommaviy xatti-harakat va yo'qotishlardan qochish kabi xulq-atvor omillarining investitsiya natijalariga ta'siri o'rganiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati fintex va investitsiya xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikni moliya nazariyasi, xulq-atvor moliyasi va texnologiyalarni qabul qilish yondashuvlari asosida izohlashga qaratilganidadir. Amaliy ahamiyati esa reguliatorlar, investitsiya vositachilari va fintex kompaniyalari uchun investorlarni himoya qilish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fintex texnologiyalari rivojlanishi investorlarning investitsiya qarorlari va bozor xulq-atvoriga ta'sirini o'rganishga qiziqishni kuchaytirdi. An'anaviy nazariyada investor ratsional qaror qabul qiluvchi sifatida qaralsa, raqamli platformalar sharoitida qarorlar platforma dizayni, algoritmik tavsiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va psixologik omillar ta'sirida shakllanmoqda.

Bu yo'nalishning nazariy asoslari xulq-atvor moliyasi, texnologiyalarni qabul qilish modeli va rejalashtirilgan xatti-harakatlar nazariyasiga tayanadi. Tadqiqotlar investor qarorlariga moliyaviy savodxonlik, raqamli ko'nikmalar, tavakkalchilikka moyillik va ijtimoiy muhit sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotlarda mobil investitsiya ilovalari, robo-maslahatchilar va ijtimoiy tarmoqlarning investor xulq-atvoriga ta'siri keng o'rganilgan. Freibauer va hammualliflari (2024) mobil savdo ilovalari investorlarning savdo faolligini oshirishini aniqlagan. Amin va hammualliflari (2025) esa platformalardagi geymifikatsiya va tezkor mukofotlash mexanizmlari qisqa muddatli savdoga moyillikni kuchaytirishini ta'kidlaydi. Aristei va Gallo (2025) robo-maslahatchilardan foydalanish moliyaviy va raqamli savodxonlik bilan bog'liqligini ko'rsatgan. Chen va hammualliflari (2025) ijtimoiy tarmoqlar investorlarning qarorlariga va dispozitsiya effektiga ta'sir qilishini

aniqlagan. Sahu va hammualliflari (2025) esa kriptoaktivlarga investitsiya qilishda psixologik omillar muhim rol o'ynashini qayd etgan.

Mahalliy tadqiqotlarda fintexning kapital bozori rivojiga ta'siri ko'proq o'rganilgan. Mamatov (2026) raqamli platformalar individual investorlar faolligini oshirishini ta'kidlaydi. Eshpulatov (2025) investitsiya niyatiga moliyaviy bilim, raqamli savodxonlik va ishonch ta'sir qilishini aniqlagan. Asadov (2024) sukukka talab investitsiya tajribasi va maxsus bilimlarga bog'liqligini ko'rsatgan. Dadajonova (2026) fintex ekotizimlari investorlarni jalb qilishda muhim ekanligini qayd etadi. Fayzieva va hammualliflari (2023) esa raqamli infratuzilma investitsiya faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

O'zbekistonda fintexning real investitsiya xulq-atvoriga, jumladan, savdo chastotasi, portfel diversifikatsiyasi va riskli aktivlarni tanlashga ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan. Mahalliy tadqiqotlar asosan investitsiya niyati va bozor rivojlanishiga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O'zbekistonda fintex texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida individual investorlar xulq-atvoriga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan. Metodologiya xulq-atvor moliyasi nazariyasi, rejalashtirilgan xatti-harakatlar nazariyasi va texnologiyalarni qabul qilish modeli asosida shakllantirilgan. Bu yondashuv fintexdan foydalanishning investitsiya qarorlariga ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi.

Tadqiqot aralash metodologik yondashuvga asoslanadi. Sifat tahlili doirasida normativ-huquqiy hujjatlar, strategiyalar, ilmiy manbalar va xalqaro hisobotlar o'rganilib, investitsiya xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi institutsional omillar aniqlanadi.

Modelda fintexdan foydalanish intensivligi asosiy mustaqil o'zgaruvchi, investitsiya xulq-atvori esa bog'liq o'zgaruvchi sifatida olinadi. Moliyaviy savodxonlik, ishonch, riskni idrok etish va ijtimoiy ta'sir moderatsion omillar sifatida, ortiqcha ishonch, ommaviy xatti-harakatga ergashish va yo'qotishlardan qochish kabi kognitiv og'ishlar esa vositachi omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Yosh, jins, daromad va investitsiya tajribasi nazorat o'zgaruvchilari hisoblanadi. Dastlab deskriptiv statistika yordamida tanlanmaning umumiy tavsifi beriladi. Keyinchalik korrelyatsion tahlil orqali o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanadi. O'lchovlarning ishonchligi va validligini tekshirish uchun eksplorativ va tasdiqlovchi omilli tahlil, Cronbach alfa hamda kompozit ishonchlik ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Fintexning investitsiya xulq-atvoriga ta'sirini baholashda PLS-SEM usuli qo'llanadi. Ushbu yondashuv yashirin o'zgaruvchilar o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni, vositachilik va moderatsiya ta'sirlarini aniqlash imkonini beradi.

Investitsiya qilish ehtimolini baholash uchun logistik regressiya, savdo chastotasi va investitsiya hajmi kabi ko'rsatkichlar uchun esa ko'p omilli regressiya modellari qo'llanadi. Guruhlar o'rtasidagi farqlar dispersiya tahlili va ko'p guruhli tahlil yordamida o'rganiladi. Endogenlik muammosini kamaytirish maqsadida modelga moliyaviy savodxonlik, daromad, tavakkalchilikka moyillik va investitsiya tajribasi kabi nazorat o'zgaruvchilari kiritiladi hamda barqarorlik tekshiruvlari amalga oshiriladi. Natijalarni talqin qilishda O'zbekiston kapital bozori rivojlanish darajasi, aholining jamg'arma xulq-atvori, raqamli to'lovlar ommalashuvi va davlatning raqamlashtirish siyosati hisobga olinadi. Xorijiy tajribalar mahalliy sharoitga mos ravishda baholanadi. Tadqiqotda respondentlarning shaxsiy ma'lumotlari himoya qilinadi. Ishtirok etish ixtiyoriy va anonim bo'lib, barcha ma'lumotlardan faqat ilmiy maqsadlarda foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida fintex texnologiyalarining rivojlanishi individual investorlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy tarkibiy omillardan biriga aylanmoqda. Mazkur ta'sir, birinchi navbatda, aholining internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatlari kengayishi, moliyaviy xizmatlarning mobil va masofaviy shaklga o'tishi, birja operatsiyalarining texnologik jihatdan soddalashuvi hamda qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi axborotga kirish tezligining oshishi orqali namoyon bo'lmoqda. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi kapital bozoriga kirish bilan bog'liq hududiy, vaqt va tranzaksion cheklovlarni kamaytirib, investitsiya xizmatlarini kengroq aholi qatlamlari uchun ochib bermoqda. Shu bilan birga, raqamli imkoniyatlarning kengayishi investitsiya qarorlarining sifatini avtomatik tarzda oshirmaydi, chunki texnologik qulaylik investorning moliyaviy savodxonligi, tavakkalchilikni anglash darajasi va bozor institutlariga bo'lgan ishonchi bilan muvofiqlashtirilgan sharoitda ortiqcha savdo faolligi va impulsiv qarorlar xavfini kuchaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, internetdan foydalanuvchi aholi ulushi 2021-yildagi 76,6 foizdan 2024-yilda 93,3 foizga yetgan. 2025-yilning yanvar–avgust oylarida esa ushbu ko'rsatkich 94,2 foizni tashkil etgan. Shunday qilib, to'rt yildan kamroq vaqt ichida internetdan foydalanish darajasi 17,6 foiz punktga oshgan. Mazkur o'sish raqamli moliyaviy xizmatlarni joriy etish uchun zarur



texnologik talab bazasi shakllanganini ko'rsatadi. Internet qamrovining yuqori darajasi brokerlik xizmatlari, mobil investitsiya ilovalari, elektron identifikatsiya, masofaviy hisobvaraq ochish va real vaqt rejimida bozor ma'lumotlarini olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Internetga ulangan jismoniy shaxslar soni ham sezilarli ravishda oshgan. Rasmiy statistikaga ko'ra, internet tarmog'iga ulangan jismoniy shaxslar soni 2020-yilda 19,2 millionni, 2021-yilda 22,1 millionni, 2022-yilda 25,2 millionni, 2023-yilda 28,2 millionni va 2024-yilda 29,8 millionni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlarning dinamikasi O'zbekistonda raqamli xizmatlar iste'molchilari bazasi izchil kengayayotganini anglatadi. Biroq internet foydalanuvchilari soni bilan faol individual investorlar soni o'rtasida avtomatik tenglik mavjud emas. Internetga kirish investitsiya faoliyatining zarur sharti bo'lsa-da, u yetarli shart hisoblanmaydi. Fuqaroning fond bozoriga real kirishi investitsiya instrumentlari to'g'risidagi bilim, erkin moliyaviy resurslar, huquqiy himoyaga ishonch va bozor operatsiyalarini amalga oshirishga tayyorlik bilan belgilanadi.

Raqamli infratuzilmadagi o'zgarishlar "Toshkent" Respublika fond birjasi ko'rsatkichlarida ham aks etgan. Birja ma'lumotlariga ko'ra, aksiyalar bozoridagi bitimlar soni 2021-yilda 71 187 tani, 2022-yilda 80 652 tani, 2023-yilda 411 393 tani va 2024-yilda 443 849 tani tashkil qilgan. Demak, 2021–2024-yillar davomida aksiyalar bozoridagi bitimlar soni 6,2 baravarga oshgan. Ayniqsa, 2023-yilda bitimlar sonining oldingi yilga nisbatan 410,1 foizga ko'paygani individual investorlar faolligining keskin jadallashganini ko'rsatadi. Birja mazkur o'sishni qimmatli qog'ozlar savdosida fintex yechimlarining faol joriy etilishi va chakana investorlar oqimining kengayishi bilan izohlaydi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda raqamli infratuzilma va fond bozori faolligining asosiy ko'rsatkichlari¹

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2021	2022	2023	2024	
Internetdan foydalanuvchi aholi ulushi	foiz	76,6	83,9	89,0	93,3	+16,7 foiz punkt
Internetga ulangan jismoniy shaxslar	ming nafar	22 112,1	25 167,9	28 166,7	29 756,7	+34,6 foiz
Aksiyalar bozoridagi savdo hajmi	mlrd so'm	1 147,1	4 705,8	2 620,6	19 182,1	16,7 baravar
Aksiyalar bozoridagi bitimlar soni	birlik	71 187	80 652	411 393	443 849	6,2 baravar
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	mln so'm	16,1	58,4	6,4	43,2	2,7 baravar
Korporativ obligatsiyalar bozoridagi savdo hajmi	mlrd so'm	113,4	110,4	92,2	381,0	3,4 baravar
Korporativ obligatsiyalar bo'yicha bitimlar soni	birlik	302	71	477	3 118	10,3 baravar
Fond bozori kapitallashuvi	trln so'm	-	-	169,4*	242,4	2024-yilda +43,1 foiz
Fond bozori kapitallashuvining YAIMga nisbati	foiz	-	-	-	16,7	-
Erkin muomaladagi aksiyalar kapitalizatsiyasi	trln so'm	-	-	-	4,3	-
Birja listingidagi aksiyalar emitentlari	ta	-	-	-	89	-

Jadval ma'lumotlari raqamli infratuzilmaning kengayishi bilan kapital bozoridagi tranzaksion faollik o'rtasida ijobiy yo'nalishdagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Biroq savdo hajmi va bitimlar sonining dinamikasi bir xil tendensiyaning aks ettirmaydi. Masalan, 2023-yilda aksiyalar bozoridagi bitimlar soni 2022-yilga nisbatan 410,1 foizga oshgan bo'lsa-da, savdo hajmi 44,3 foizga kamaygan. Mazkur holat bozorda son jihatdan ko'p, biroq hajmi nisbatan kichik operatsiyalar ulushi oshganini ko'rsatadi. Bitta bitimning o'rtacha hajmi 2022-yildagi 58,4 million so'mdan 2023-yilda 6,4 million so'mgacha pasaygani ham chakana investorlar ishtiroki kengayganligi haqidagi xulosani qo'llab-quvvatlaydi.

2024-yilda esa aksiyalar bozoridagi savdo hajmi 19,18 trillion so'mga yetib, 2023-yilga nisbatan 632 foizga oshgan. Shu davrda bitimlar sonining o'sishi 7,9 foiz bilan cheklangan. Bu nomutanosiblik 2024-yil savdo hajmining o'sishi faqat individual investorlar faolligi bilan emas, balki yirik paketlar, xususiylashtirishlar va

1 *Izoh: 2023-yil yakunidagi kapitalizatsiya 2024-yilda qayd etilgan 72,99 trln so'mlik yoki 43,1 foizlik o'sish ko'rsatkichidan kelib chiqib hisoblangan. Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va "Toshkent" Respublika fond birjasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

“Free of Payment Board” segmentida amalga oshirilgan blokli operatsiyalar bilan ham bog'liq ekanini anglatadi. Shuning uchun savdo hajmining keskin oshishini chakana investorlar farovonligi yoki bozor likvidligining mutanosib yaxshilanishi sifatida bir tomonlama talqin qilish metodologik jihatdan noto'g'ri bo'ladi.

Birjaning 2024-yil yakunlariga ko'ra, barcha savdo platformalaridagi operatsiyalarning umumiy hajmi 21,95 trillion so'mni, bitimlar soni esa 498 381 tani tashkil etgan. Umumiy bitimlarning 446 967 tasi listingdagi qimmatli qog'ozlar, 51 414 tasi esa tashkil etilgan birjadan tashqari bozor hissasiga to'g'ri kelgan. Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalar hajmining 89,11 foizi birja listingidagi instrumentlarga tegishli bo'lgan. Mazkur holat kapital bozori operatsiyalarining tartibga solingan va kuzatiladigan segmentga ko'chib borayotganini ko'rsatadi.

Bozor tuzilmasidagi muhim ijobiy o'zgarishlardan biri uyushmagan birjadan tashqari bozor ulushining 2023-yildagi 94 foizdan 2024-yilda 58 foizgacha qisqargani, uyushgan bozor ulushining esa 6 foizdan 42 foizgacha oshganidir. Ushbu tarkibiy siljish operatsiyalarning shaffofligini kuchaytiradi, narx shakllanishi mexanizmini yaxshilaydi va investorlar uchun rasmiy bozor ma'lumotlarining ahamiyatini oshiradi.

2024-yil yakunida fond bozorining umumiy kapitalizatsiyasi 242,4 trillion so'mni yoki YAIMning 16,7 foizini tashkil etgan. Nominal nuqtayi nazardan mazkur ko'rsatkich kapital bozorining iqtisodiyotdagi salmog'i oshayotganini ko'rsatadi. Biroq erkin muomaladagi aksiyalar bo'yicha tuzatilgan kapitalizatsiya atigi 4,3 trillion so'mni yoki YAIMning 0,3 foizini tashkil qilgan. Umumiy va erkin muomaladagi kapitalizatsiya o'rtasidagi bunday katta tafovut aksiyalarning muhim qismi nazorat qiluvchi davlat yoki strategik mulkdorlar qo'lida jamlanganini, bozor muomalasiga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi esa cheklanganligini anglatadi.

Mazkur holat individual investor xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning kamligi investorlarning portfelini tarmoq, emitent va instrumentlar bo'yicha diversifikatsiya qilish imkoniyatini cheklaydi. Likvid instrumentlar sonining kamligi tufayli investorlar ayrim ommabop aksiyalarga haddan tashqari konsentratsiyalashishi, narx o'zgarishlariga kuchli reaksiya bildirishi va qisqa muddatli bozor tendensiyalariga ergashishi mumkin. Bunday sharoitda mobil savdoning qulayligi bozor chuqurligining yetishmasligini qoplay olmaydi, aksincha, cheklangan instrumentlar doirasida takroriy va spekulativ operatsiyalar sonini oshirishi mumkin.

2024-yil oxirida birjada 93 ta emitentning 142 ta moliyaviy instrumenti listingga kiritilgan bo'lib, ular tarkibida 16 ta yangi aksiya va 7 ta korporativ obligatsiya mavjud bo'lgan. Aksiyalar segmentida 89 ta emitent qatnashgan. Mazkur ko'rsatkichlar bozor instrumentlari tarkibining kengayayotganini va investitsiya taklifining bosqichma-bosqich diversifikatsiyalanayotganini bildiradi. Individual investorlar uchun investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish brokerlik ilovalarini rivojlantirish, yangi emitentlarni bozorga olib chiqish, davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarining free float darajasini oshirish va ommaviy takliflar mexanizmini muntazamlashtirish orqali yanada yuqori darajaga olib chiqilishi mumkin.

“Xalq IPO” dasturi doirasida 2024-yilda “O'zRTXB” aksiyadorlik jamiyatining 42,9 milliard so'mlik aksiyalarini ikkilamchi ommaviy taklif qilish jarayoni amalga oshirilgani aholining kapital bozoridagi bevosita ishtirokini kengaytirishga qaratilgan siyosiy-iqtisodiy mexanizmlardan biri bo'ldi. Mazkur ommaviy taklif chakana investorlarning kapital bozoridagi ishtirokini rag'batlantirish uchun muhim amaliy imkoniyat yaratdi. Ommaviy joylashtirishlar oldindan e'lon qilinadigan va turli tarmoqlarni qamrab oladigan izchil dasturga aylantirilgan taqdirda, fintex platformalari orqali shakllanayotgan talab real kapital bozoriga yanada samarali yo'naltirilib, aholining investitsiya faolligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Korporativ obligatsiyalar segmentida ham ijobiy siljishlar kuzatilgan. Mazkur bozordagi savdo hajmi 2023-yildagi 92,2 milliard so'mdan 2024-yilda 381,0 milliard so'mgacha, bitimlar soni esa 477 tadan 3 118 tagacha oshgan. Bu obligatsiyalar segmentida chakana va institutsional talabning faollashganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, listingdagi obligatsiyalarning umumiy bozor qiymati 817,6 milliard so'm yoki YAIMning atigi 0,1 foiziga teng bo'lgan. Demak, mazkur segment tez o'sayotgan bo'lsa-da, mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli moliyalashtirishdagi roli hali cheklangan.

Tadqiqot doirasida internetdan foydalanuvchi aholi ulushi bilan aksiyalar bozoridagi bitimlar soni o'rtasidagi statistik bog'liqlikni dastlabki baholash uchun 2021–2024-yillar ma'lumotlari asosida yarim logarifmik regressiya modeli tuzildi. Modelda aksiyalar bozoridagi yillik bitimlar sonining natural logarifmi natijaviy o'zgaruvchi, internetdan foydalanayotgan aholi ulushi esa mustaqil o'zgaruvchi sifatida qabul qilindi:

$$\ln(Y) = 1,312 + 0,126X, R^2 = 0,816,$$

bu yerda Y - aksiyalar bozoridagi yillik bitimlar soni, X - internetdan foydalanuvchi aholi ulushi.

Model koeffitsiyentiga ko'ra, kuzatilgan davr doirasida internetdan foydalanuvchi aholi ulushining bir foiz punktga oshishi aksiyalar bozoridagi bitimlar sonining o'rtacha 13,4 foizga yuqori bo'lishi bilan statistik jihatdan bog'langan. Determinatsiya koeffitsiyentining 0,816 ga tengligi model fond bozoridagi bitimlar soni logarifmi variatsiyasining 81,6 foizini internetdan foydalanish darajasi bilan bog'liq holda izohlashini ko'rsatadi.

Biroq ushbu natijani sababiy ta'sir sifatida talqin qilish mumkin emas. Kuzatuvlar soni atigi to'rtta yilni tashkil etishi, 2023-yildagi keskin institutsional o'zgarishlar, fintex savdo kanallarining joriy etilishi, yangi brokerlik




mexanizmlari va ommaviy takliflarning natijaga bir vaqtda ta'sir qilishi modelning statistik umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Shuning uchun mazkur regressiya internet qamrovi fond bozori faolligi uchun muhim shart ekanini ko'rsatuvchi eksplorativ dalil sifatida baholanishi lozim.

Ekonometrik diagrammada 2021 va 2022-yillarda internetdan foydalanish darajasi oshganiga qaramay, fond bozorida bitimlar soni nisbatan past sur'atlarda o'sgani, 2023-yilda esa keskin tarkibiy sakrash yuz bergani ko'rinadi. Bu holat investitsiya xulq-atvoridagi o'zgarish faqat internet qamrovi bilan emas, balki raqamli savdo infratuzilmasi, brokerlik xizmatlarining mavjudligi, investitsiya mahsulotlari taklifi va davlat siyosatidagi institutsional islohotlarning birgalikdagi ta'siri ostida shakllanishini tasdiqlaydi.

Raqamli imkoniyatlarning kengayishi O'zbekiston investorlari uchun axborot qidirish va bitim tuzish xarajatlarini kamaytirmoqda. Mobil platformalar investorning bozor narxlarini real vaqt rejimida kuzatishi, masofadan turib buyurtma berishi va portfel holatini nazorat qilishi uchun imkoniyat yaratadi. Bu investitsiya niyatining real xatti-harakatga aylanish ehtimolini oshiradi. Biroq operatsiyalarning texnik jihatdan osonlashuvi investorning fundamental tahlil o'tkazish xarajatlarini emas, faqat bitimni amalga oshirish xarajatlarini kamaytiradi. Natijada moliyaviy bilimlari yetarli bo'lmagan foydalanuvchilar tez-tez savdo qilishni investitsiya samaradorligining oshishi bilan noto'g'ri tenglashtirishi mumkin.

Fond bozori bitimlari sonining o'sishi bilan UCI indeksining 2024-yilda 7,7 foizga pasayib, 655,1 punktga yopilgani o'rtasidagi tafovut ham muhim xulq-atvor natijasini ko'rsatadi. Ya'ni investorlar faolligining oshishi bozor narxlarining barqaror o'sishini anglatmaydi. Bitimlar soni ko'paygan sharoitda indeksning pasayishi ayrim investorlar bozorga narxlarining yuqori volatilligi yoki pasayish davrida kirgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu fintex orqali bozorga yangi kirgan investorlar uchun tavakkalchilik profilini baholash, zarar ehtimoli to'g'risida aniq ogohlantirish va uzoq muddatli diversifikatsiya tamoyillarini tushuntirish zarurligini kuchaytiradi (1-rasm).



1-rasm. Internetdan foydalanish darajasi va fond bozoridagi bitimlar faolligi o'rtasidagi bog'liqlik, 2021–2024-yillar²

Diagrammada nuqtalar rasmiy yillik kuzatuvlarni, egri chiziq esa yarim logarifmik OLS regressiyasi asosida baholangan tendensiyani ifodalaydi. Grafikdagi yuqori R^2 ko'rsatkichi bog'liqlikning kuchli ekanini bildiradi, biroq to'rtta kuzatuv sababli statistik sababiylikni tasdiqlamaydi.

Milliy statistika qo'mitasi internetdan foydalanuvchi aholi ulushi 2021-yilda 76,6 foiz, 2022-yilda 83,9 foiz, 2023-yilda 89,0 foiz, 2024-yilda 93,3 foiz va 2025-yil yanvar–avgustida 94,2 foiz bo'lganini qayd etgan. Internetga ulangan jismoniy shaxslar soni 2020-yildagi 19,24 milliondan 2024-yilda 29,76 milliongacha oshgan. "Toshkent" Respublika fond birjasining 2024-yil yakuniy hisobotida aksiyalar bozori savdo hajmi 19,18 trillion so'm, bitimlar soni 443 849 ta, korporativ obligatsiyalar bozori hajmi 381 milliard so'm va bitimlar soni 3 118 ta ekanini ko'rsatilgan. 2024-yilda barcha platformalardagi umumiy savdo hajmi 21,95 trillion so'mga, bitimlar soni 498 381 taga va bozor kapitalizatsiyasi 242,4 trillion so'mga yetgan. Erkin muomaladagi aksiyalar kapitalizatsiyasi esa 4,3 trillion so'm yoki YAIMning 0,3 foizini tashkil etgan. Birja bitimlar soni o'sishini chakana investorlar oqimi va fintex yechimlarining faol joriy etilishi bilan bog'lagan.

Tahlil natijalari O'zbekiston kapital bozorida fintexning ta'siri ikki tomonlama xususiyatga ega ekanini



ko'rsatmoqda. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar fond bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirib, bitimlar sonini oshirmoqda, operatsiyalarning uyushgan bozorga ko'chishini tezlashtirmoqda va individual investorlarning moliyaviy bozordagi ishtirokini rag'batlantirmoqda. Ikkinchi tomondan, free float darajasining pastligi, investitsiya instrumentlari tarkibining cheklanganligi, ommaviy joylashtirishlarning kamligi va moliyaviy savodxonlikdagi tafovutlar raqamlashtirishning ijobiy samarasini cheklamoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari fintex texnologiyalari O'zbekistonda individual investorlar faolligini oshirayotganini ko'rsatdi. Mobil ilovalar, elektron savdo tizimlari va masofaviy moliyaviy xizmatlar investitsiya qilishni osonlashtirmoqda. Biroq investorlarning qarorlariga moliyaviy savodxonlik, riskni baholash va bozorga bo'lgan ishonch ham katta ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar fond bozorida bitimlar soni oshayotganini, ammo aksiyalar hajmi, likvidlik va investitsiya instrumentlari yetarli emasligini ko'rsatdi. Shu sababli faollikning ortishi har doim ham bozor sifati yaxshilanganini anglatmaydi. Fintex texnologiyalari kapital bozorini rivojlantirish va investitsiyalarni kengaytirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Buning samarasi esa bozor infratuzilmasi, investorlarni himoya qilish va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-5371091>
3. Mamatov, A. (2026). Mechanisms for increasing the activity of individual investors in the securities market of Uzbekistan based on digital technologies. *Moliya va bank ishi*, 1 (maxsus son), 91–97.
4. Eshpulatov, D., Berdiev, G. and Artemenkov, A.I. (2025). Modeling the determinants of stock market investment intention and behavior among studying adults: Evidence from university students using PLS-SEM. *International Journal of Financial Studies*, 13(3), 138. DOI: 10.3390/ijfs13030138.
5. Asadov, A. (2024). Empirical analysis of demand for sukuk in Uzbekistan. *Economies*, 12(8), 220. DOI: 10.3390/economies12080220.
6. Freibauer, J., Grawert, S. and Rieger, M.O. (2024). The effects of trading apps on investment behavior over time. *The European Journal of Finance*, 1–25. DOI: 10.1080/1351847X.2024.2401604.
7. Amin, M.R., Nainggolan, Y.A. and Rahadi, R.A. (2025). The digital transformation of investment behavior: A systematic review of gambling tendencies in modern financial markets. *Cogent Economics & Finance*, 13(1), 2568643. DOI: 10.1080/23322039.2025.2568643.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100